

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3-SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

G.N.Shokirova

Amaliy ishlatiladigan yakka insektitsidlarni g'o'za tunlamiga qarshi qo'llash va ularning samaradorligini aniqlash.....734

G.N.Shokirova

Aralashma insektitsidlarni g'o'za tunlamiga qarshi qo'llash samaradorligini aniqlash738

M.A.Abdurahimova

O'zbekiston hududida o'suvchi dorivor o'simliklarni dorivorlik xususiyatini o'rgatish orqali talabalarning tibbiy savodxonligini rivojlantirish.....742

B.K.Boboyev, O.K.Usmonov, S.Sh.Kabilov, M.B.Xoliqov, M.B.Maxammadaliyev

Innovatsion texnologiyalar asosida chorvachilik sohasini rivojlantirish.....745

U.B.Mirzayev, X.A.Abduxakimova

Farg'ona vodiysi bo'z va cho'l mintaqasi tuproqlarining unumdorligi.....749

G.T.Sotiboldiyeva, X.A.Abduxakimova

O'simliklarni oziqlanishi va o'g'it fanini o'qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish754

D.Sh.Sultonov

O'zbekiston po'stloqxo'r qo'ng'izlarining taksonomik ro'yxati.....757

GEOGRAFIYA**Y.I.Ahmadaliyev, N.A.Fattoxov**

Factors of pollution of the geoecological condition of agglomerations (on the example of Fergana-Margilan agglomeration)762

O.I.Abduganiev, Kh.Abdullaeva

Agrotourism as a factor of sustainable rural development765

I.I.Abdug'aniev, D.B.Kosimov

Transchegaraviy muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni tashkil etishning ekologik-geografik asoslari.....770

R.T.Pirnazarov, S.I.Usmonova

Ulkan to'g'onlar geografiyasi va ular bilan bog'liq favqulodda vaziyatlar778

R.Y.Xolikov, I.Y.Zikirov

Farg'ona vodiysi reliefini qiyalik darajasi va uni GIS dasturlari yordamida kartalashtirish783

A.A.Xamidov

O'zbekistonda zoogeografik tadqiqotlarning rivojlanishi788

R.T.Pirnazarov, Sh.N.Axmadjonova

O'rta Osiyodagi to'g'onli ko'llarning genetik turlari va ularni tasniflash masalalari793

N.O'.Komilova

Ijtimoiy-geografik yondashuv asosida etnoekologik madaniyatni o'rganish masalasi.....798

J.J.Mamatisakov

O'quvchilarni geolog kasbiga qiziqtirishda maktab geografiya ta'limining o'rni803

D.B.Kosimov, Z.I.Mamirova, Sh.S.Sobirova

Ekologik-xo'jalik holatni baholash asosida yerdan foydalanishning hududiy tarkibini takomillashtirish807

L.M.Saydaliyeva

Sakral landshaftlarni xosil bo'lishining tabiiy - tarixiy jihatlar813

A.E.Madraximov

Joy Relyefi va uning o'zgarishi haqida ma'lumot beruvchi geografik nomlar.....819

EKOLOGIYA**M.T.Abdullayeva, L.A.Tadjibayeva**

Qishloq xo'jaligida yerni boyitishda don dukkakli o'simliklarning ro'li822

S.A.Mamatqulova, T.E.Usmanova, I.R.Asqarov

Analysis of macro and micro elements in the biologically active supplement "AS-OROM"827

M.T.Abdullayeva, L.A.Tadjibayeva

Sansevieriya (Sansevieria) o'simligining ayrim bioekologik xususiyatlari va uni yetishtirish texnologiyasi831



UO‘K: 502.171

IJTIMOY-GEOGRAFIK YONDASHUV ASOSIDA ETNOEKOLOGIK MADANIYATNI O‘RGANISH MASALASI**ПРОБЛЕМА ИЗУЧЕНИЯ ЭТНОЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ НА ОСНОВЕ СОЦИАЛЬНО-ГЕОГРАФИЧЕСКОГО ПОДХОДА****THE PROBLEM OF STUDYING ETHNOECOLOGICAL CULTURE BASED ON THE SOCIO-GEOGRAPHICAL APPROACH****Komilova Nargiza O‘rinovna** Farg‘ona davlat universiteti Tabiiy fanlar fakulteti geografiya kafedrası dotsenti v.b., g.f.f.d.
(PhD)**Annotatsiya**

Maqolada keyingi yillarda mahalliy xalqlarning yo‘qolib borayotgan tabiatdan oqilona foydalanish madaniyati haqida fikr bildiriladi. Unda tabiat bilan jamiyat o‘rtasida yuz beradigan o‘zaro aloqadorlik va munosabatlar tizimi hozirgi davrga kelganda ancha murakkab vaziyatga tushib qolganligi, mazkur vaziyatda tabiatni asrab qolishning asosiy usuli esa landshaft-etnos-xo‘jalik tizimida dastur-maqsabli turdan foydalanish ekanligi ochib beriladi. Shuningdek, asrlar davomida shakllangan yuksak etnoekologik madaniyatni saqlab qolish va uni innovatsion g‘oyalar bilan boyitish, landshaft-ekologik rejalashtirishni hayotga tatbiq etish orqali amaliy ishlarni bajarish tabiatni muhofaza qilishning eng oqilona yo‘li ekanligi asoslantiriladi.

Аннотация

В статье высказывается мнение о культуре рационального использования исчезающей природы местных народов в последние годы. Выявлено, что система взаимосвязей и отношений природы и общества в современный период попала в весьма сложную ситуацию, и основным методом сохранения природы в этой ситуации является использование программно-целевого типа в ландшафтно-этно-система экономики. Обосновано также, что сохранение высокой этноэкологической культуры, формировавшейся веками, и обогащение ее новаторскими идеями, проведение практической работы посредством реализации ландшафтно-экологического планирования является наиболее разумным способом охраны природы.

Abstract

The article expresses an opinion about the culture of rational use of the disappearing nature of local peoples in recent years. It is revealed that the system of interrelations and relations of nature and society in the modern period has fallen into a very difficult situation, and the main method of nature conservation in this situation is the use of a program-target type in the landscape-ethno-economic system. It is also substantiated that the preservation of a high ethnoecological culture formed over centuries, and enriching it with innovative ideas, carrying out practical work through the implementation of landscape-ecological planning is the most reasonable way to protect nature.

Kalit so‘zlar: Madaniy ekologiya, etnoekologiya, tarixiy yondoshuv, tabiiy–tarixiy tur, tovar maqsadli tur, dastur maqsadli tur, geografik landshaft, madaniy turlar.

Ключевые слова: Культурная экология, этноэкология, исторический подход, естественно-исторические виды, товарные виды, программные виды, географический ландшафт, культурные виды.

Key words: Cultural ecology, ethnoecology, historical approach, natural-historical species, commodity species, program species, geographical landscape, cultural species.

KIRISH

Tabiat bilan jamiyat o‘rtasida yuz beradigan o‘zaro aloqadorlik va munosabatlar tizimi hozirgi davrga kelganda ancha murakkablashdi. Bu aloqadorlik o‘rnini jamiyatning tabiatga ko‘rsatayotgan kuchli ta‘siri va bosimi egalladi. Natijada, tabiatda turli xil ekologik muammolarning kuchayishi va uning ijtimoiy-ekologik muammolarga aylanib borishi kuzatilmoqda. Mazkur muammolar yechimida zamonaviy innovatsion yondashuvlar bilan bir qatorda mahalliy aholining tabiatdan foydalanish an‘analariga asoslangan etnoekologik yondashuvning ahamiyati haqida respublikamiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev shunday yozadi: –«Xalqlarimizning tabiatga uning

GEOGRAFIYA

boyliklarini asrab-avaylagan holda munosabatda bo'lish va umumiy suv resurslaridan birgalikda foydalanish borasida ko'p asrlik an'analariga suyangan holda biz haqiqatan ham ulkan natijalarga erishamiz»⁶. Bundan tashqari halqaro xamjamiyatning qator konferensiyalarida (Rio-de-Janeyro, 1992, Yoxannesburg, 2002, Nyu-York, 2015) insoniyatning yaqinlashib kelayotgan ekologik halokatlardan qutqarish, rivojlanishning barqaror yo'liga o'tishning asosiy tamoyillaridan biri sifatida – «tub joy aholisi foydalanadigan an'anaviy bilimlar va qadriyatlar, resurslardan foydalanish usullarini e'tirof etish» [1; 31-b.] ekanligi ta'kidlanmoqda. Bunday yondashuvda etnoekologik tadqiqotlarning dolzarbligi yanada ortadi.

Natijalar va ularning muhokamasi. Etnoekologik tadqiqotlar olib borishda majmualiy yondashuv alohida ahamiyat kasb etadi, sababi, bu tadqiqotlarni bir vaqtning o'zida tabiiy hamda ijtimoiy mohiyatga egadir. Tadqiqotda yechimini kutayotgan muammolarning katta qismi tabiiy-ekologik xarakterda bo'lsada, ularning yechimida ijtimoiy-tarixiy masalalarni hal etilishi katta o'rin tutadi. Shuning uchun, tadqiqot ishida majmualiy qarashlarni o'zida mujassamlagan tarixiy hamda, ekotizimli yondashuvlarga alohida e'tibor qaratiladi [1; 5; 11].

Bugungi kunda, kishilik jamiyati oldidagi ekologik xavf-xatarni bartaraf etish va rivojlanishning barqaror yo'liga o'tish konsepsiyasi bo'yicha kishilik jamiyatida bir necha ming yilliklar davomida doimo o'zgarib kelgan, geoeкологиya ilmiy yo'nalishining asosiy ko'rsatkichlari hisoblangan, tabiatdan foydalanish va mahsulot ishlab chiqarish miqdori, aholining soni, tabiiy resurslardan foydalanish ko'lam, tabiatdagi antropogen bosim miqdori, ekologik va etnoekologik landshaft muvozanati kabi ko'rsatkichlarni o'zgarishini makon va zamonda nazorat qilish zarurati paydo bo'lmoqda [6]. Bu esa, o'z navbatida ekologik muvozanatni saqlab qolishga innovatsion qarashlar bilan bir qatorda tarixiy yondashuv zarurligini ko'rsatmoqda.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyada kishilik jamiyatini hududiy tashkil etish tamoyillari, turlari va shakli turli omillar ta'sirida o'zgarishi mumkin. Bu holat tabiatdan, jumladan, yer resurslaridan foydalanish jarayonida yanada aniqroq namoyon bo'lishi mumkinligini jahon mamlakatlari misolida V.A.Pulyarkin tomonidan asoslab berilgan [9; 104-b.]. Ushbu metodologik asoslarga tayanib, tahlil qilinganda, mintaqaviy sharoitda tabiiy resurslardan foydalanishni hududiy tashkil etishning uchta turini ajratish Y.I.Ahmadaliyev tomonidan taklif qilingan. Bu turlarni ham, tabiatdan foydalanish maqsadidan kelib chiqib, shartli ravishda tabiiy-tashkiliy, tovar-maqsadli va dastur – maqsadli deb atalgan [1; 129-b.].


Farg'ona vodiysida XIX asr oxiri va XX asr boshlariga qadar, mavjud bo'lgan, hududning tabiiy imkoniyatlardan foydalanishga asoslangan tabiatdan foydalanishning dastlabki turini biz tabiiy-tarixiy tur deb atadik, sababi bu davrda masalaning tashkiliy jihatlari u qadar rivojlanmagan. Tabiatdan foydalanishni hududiy tashkil etishning bu turida relyef, iqlim, tuproq xususiyatlari, vodiyni yopiq o'rni hamda, aholining milliy-etnik xususiyatlari, ko'nikma, malaka va odatlari hisobga olingan. Bu tur, odatda, uzoq tarixiy vaqt davomida shakllanib, unda to'plangan ko'nikma, malaka va tajribalar tabiat bilan uyg'un, mutanosib aloqadorlikka asoslanadi. Binobarin, ekologik nuqtai-nazardan qargalganda, bu tur eng mustahkam bo'lib, shu maqsadda o'rganishga arziydi.

Agar «Etnos-landshaft-xo'jalik» tizimining o'zaro munosabatlari «geotriton»lar shaklida joylashtirilsa, asosiy og'irlik yuki xo'jalikka tushayotganligini, xo'jalikni hududiy tashkil etishda uni landshaft ko'rsatkichlariga muvofiq, uni talablariga moslab, olib borilayotganligi namoyon bo'ladi. Etnosning landshaft talablariga mos keladigan xo'jalik ko'rsatkichlarigina «ko'nikma-malaka-an'ana» sifatida saqlanib qolinayotganligi namoyon bo'ladi. «Etnos-landshaft-xo'jalik» munosabatlari rivojlanib borishi bilan har qanday mintaqada tabiiy landshaftlarning (biosfera) miqdori qisqarib, uning o'rnini xo'jalik (texnosfera) ko'rsatkichlari egallay boshlaydi (1-rasm).

«Etnos-landshaft-xo'jalik» tizimidagi munosabatlar takomillashib borgani sari, [1; 8;] birinchi tur o'rnini navbatdagi tabiatdan foydalanishni hududiy tashkil etishning tovar-maqsadli turi egallaydi. Bu turda mintaqaning tabiiy imkoniyatlari bilan bir qatorda subyektiv omillar (masalan, tovar ekinlariga bo'lgan talabning ortishi, begona etnoslarning landshaftga kirib kelishi) ham e'tiborga olinadi. Natijada, hududning tabiiy landshaft xususiyatlari ko'proq o'zgartiriladi, ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlaridan keng foydalaniladi. Iqtisodiy samaradorlik yuqori bo'lsa-da,

⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Turmanistonning Turkmanboshi shahrida bo'lib o'tgan Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi ta'sischi davlatlar rahbarlari kengashining majlisidagi nutqi. Xalq so'zi gazetasi, 2018 yil 25 avgust, № 173 (7131).

oqibatda geoekologik muammolarning kelib chiqishi uchun zamin tayyorlanadi. Bu tur Farg'ona vodiysida 1876-yildan 1991-yilgacha bo'lgan davrda mavjud bo'lgan.



1-rasm. Tabiatdan foydalanishda «landshaft-etnos-xo'jalik» tizimining o'zgarishi

«Etnos-landshaft-xo'jalik» tizimining o'zaro munosabatlarini «geotriion»lar shaklidan asosiy og'irlik yuki landshaftga tushayotganligini kuzatish mumkin. Landshaftni majburan xo'jalik ko'rsatkichlariga moslash, melioratsiya va irrigatsiya ishlarini keragidan ortiqcha kuchaytirish, daryolar rejimi va yo'nalishlarini o'zgartirish kuzatiladi. Bizning sharoitimizda irrigatsiya ishlari mashina (nasos) yordamida olib borilib, suv chiqarish mutlaqo ta'qiqlangan hududlar (masalan, adirlar) sug'oriladi. Ekologik nuqtai-nazardan bunday yondashuvni N.F.Reymers «tabiatga jarrohlik yo'li bilan aralashuv» deb baholaydi va zanjir reaksiyasi tarzidagi ekologik muammolarni keltirib chiqarishini yozadi [10; 393-b.] Bunday turda mazkur tadqiqot uchun eng muhim bo'lgan jihat mahalliy etnoslar bilan ular hududiga kirib kelgan (yoki bosib olgan) «ilg'or» etnoslar o'zaro aloqaga kirishadilar. L.N.Gumelev fikricha, «ilg'or, begona yoki kelgindi» etnoslar tabiatdan foydalanishdagi o'z landshaftlarida qo'llagan texnik jihatdan yuqori bo'lgan usullarni mahalliy etnoslarga o'rgatib, ularning landshaftlarida qo'llay boshlaydilar [3; 427 b.]. Bu esa, landshaft imkoniyatlari puxta o'rganilmasa, fojiali ekologik oqibatlarga olib kelishi mumkin.

«Etnos-landshaft-xo'jalik» tizimi munosabatlarining uchinchi ya'ni «dastur-maqсадli turi» tabiatdan foydalanishni barqaror rivojlanish tamoyillariga asoslanib, xo'jalik yuritayotgan, ilg'or rivojlangan mustaqil davlatlar uchun hosdir. Farg'ona vodiysida bu turga o'tish mustaqilligimizdan so'ng, amalga oshirila boshlandi. «Etnos-landshaft-xo'jalik»ning o'zaro munosabatlarini aks ettiruvchi «geotriion»larda har bir komponentga teng miqdorda og'irlik yuki tushayotganligini ko'rish mumkin. Biroq, bu turda ham, biosferaning o'rnini ko'proq texnosfera va etnosfera egallab borayotganligini chizmadan ko'rish mumkin.

Bu turda barqaror rivojlanishini ta'minlovchi landshaftli rejalashtirish, innovatsion ekologik loyihalar hayotga tadbiiq etiladi [6; 105-b.]. Buning uchun, yuqoridagi ikki turni

GEOGRAFIYA

puxta tahlil qilib, ularning birinchisini ijtimoiy-ekologik, ikkinchisini iqtisodiy-texnologik jihatdan ibratli yutuqlar dastur maqsadli tur uchun tanlab olinadi.

Mazkur tadqiqotni maqsadi, etnoekologik madaniyatni geografik jihatlarini tadqiq etish bo'lganligidan bu yerda tabiiy va ijtimoiy yo'nalishlarni bir vaqtda o'rganish imkoniyatini beruvchi tizimli yondashuv zarur bo'ladi. Sababi, etnoekologik madaniyatning elementlari sifatida ijtimoiy, iqtisodiy, tabiiy va ekologik ko'rsatkichlar va ular o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik olinadi.

Etnoekologik madaniyatni o'rganishni geografik bilimlarda dastlab, tarixiy yondashuvda kuzatilgani kabi rayonlashtirish masalasi ko'rib chiqiladi. Bunda «etnik hudud», «etnik makon», «etnik chegara», «etnik yadro» tushunchalariga e'tibor qaratiladi [2; 152-b.]. Biroq, Farg'ona vodiysi kabi turli etnoslar aralashib ketgan, kichik hududlarda yuqoridagi birliklardan foydalanish imkoniyati deyarli yo'q. Shuning uchun yuqoridagi birliklardan kichik hududlarni o'rganish uchun «etnik yadro» tushunchasi qo'llanadi. Etnosning kichik birliklarini (subetnos) yoki tarixiy-etnografik rayonlarni ajratishda mazkur etnos vakillarini o'ziga birlashtirib turuvchi etnomadaniy markazlar alohida ahamiyaiga ega [4; 124-b.]. Ular ajratilgan rayonning etnoekologik madaniyati shakllangan joy sifatida alohida o'rin egallaydi. Ko'p hollarda bunday maskanlar ilohiylashtirilib, muqaddas qadamjolarga, ziyoratgohlarga aylantiriladi. Har bir etnolandshaft zonasi yagona tabiiy-tarixiy hudud sifatida bir-butun, yaxlit chegaralarga ega rayon sifatida mavjud bo'lishi ilmiy asoslangan [1; 108-b.]. Mazkur zonalaridagi tabiiy sharoitni kishilik madaniyatiga ta'sir etishi va aksincha kishilik madaniyatini tabiiy sharoitni o'zgartirishga o'tkazadigan ta'siri M.G.Levin, N.N.Cheboksarov (1955), B.Andryanov (1975) tomonidan ishlab chiqilgan «xo'jalik-madaniy turlar» va «tarixiy etnografik viloyatlar» to'g'risidagi konsepsiyada ochib berilgan.

Tarixiy madaniy (etnografik) viloyatlar yagona tarixiy taqdiri, hamda o'xshash landshaftlarda yashovchi xalqlarning uzoq yillik o'zaro ta'sirlari natijasida ma'lum madaniy jamoada shakllanadi. Bunday viloyatlarda vaqt va hududda mahalliy o'ziga xos xususiyatlarga, umumiy moddiy va ma'naviy madaniyatga ega bo'lgan etnik tizimlar vujudga keladi. Ushbu tadqiqotda bunday tizim sifatida rayon, undan kichik birliksifatida etnomadaniy landshaft ajratildi. Tilshunos olim N.I.Tolstoy (1995) tomonidan fanga kiritilgan bu ibora bo'yicha, etnomadaniy landshaft bu - an'anaviy etnik landshaftdir. Uni ajratishning asosiy mintaqaviy-mahalliy mezonlari sifatida an'anaviy tabiatdan foydalanish shakllarining saqlanganligi, an'anaviy qurilish va arxitekturaning mavjudligi, til va folklor an'analarning saqlanganligi, an'anaviy etiqodga amal qilish, joyning timsoli va nomining saqlanganligi kabi xususiyatlar olinadi. Shu bilan birga, etnos vakillari o'zining qaysi subetnik madaniy qatlamga mansubligini tan olishi, masofadan yoki yaqinlashishiga qarab markazni o'zgarib borishi tamoyili e'tiborga olinadi. Aytaylik, Toshkentda o'zini Marg'ilonlik deb tanishtirgan etnos vakili – Oltiariq, Qo'shtepa, Toshloq, Yozyovon va xatto Quva tumanlaridan bo'lishi, Marg'ilonni etnik yadro sifatida tan olishini nazarda tutadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, tabiat bilan jamiyat o'rtasida yuz beradigan o'zaro munosabatlar tizimi yuzaga kelayotgan turli ekologik muammolarning amaliy yechimi sifatida xalqimizning an'anaviy tabiatdan foydalanish madaniyati ekanligi ta'kidlanmoqda. Asrlar davomida shakllangan yuksak etnoekologik madaniyatni saqlab qolish va uni innovatsion g'oyalar bilan boyitish, landshaft-ekologik rejalashtirishni hayotga tatbiq etish orqali amaliy ishlarni bajarish tabiatni muhofaza qilishning eng oqilona yo'lidir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ахмадалиев Ю.И. Ер ресурсларидан фойдаланиш геоэкологияси. Т.: “Фан ва технологиялар” нашриёти, 2014. -340 б.

2. Гладкий И.Ю. Географические основы этнической экологии: Дисс. ... доктора геогр.наук. – СПб, 2006-380 с.
3. Гумелев Л.Н. Этногенез и биосфера Земли. Л.: Гидрометеиздат, 1990. - 528 с.
4. Иванов К.И. Проблемы этнической географии. - СПб., Издательства СПбУ, 1998. 216 с.
5. Козлов В.И., Покшишевский В.В. Этнография и география // Сов.этнография. 1973. N 1,-С.3-14.
6. Кочуров Б.И. Экодиагностика и сбалансированное развитие. Учебная пособие – М.: ИНФРА-М.2016, 262 с.
7. Кочуров Б.И., Геоэкология: экодиагностика и эколого-хозяйственный баланс территории. - Смоленск: СГУ, 1999. - 154 с. (<http://www.izdatgeo.ru>).
8. Левин М.Г., Чебоксаров Н.Н. Хозяйственно-культурные типы и историко-этнографические области (к постановке проблемы) // Сов. этнография, 1955, № 4. С. 3–7.
9. Пуляркин В.А. Егоров И.Д. *Развивающиеся страны: природопользование и хозяйственный рост.* - Якутск: Бичик. 2000. - 192 с.
10. Реймерс Н.Ф. Природопользование: Словарь-справочник. –М.: Мысль, 1990. - 637 с.
11. Ямсков А.Н. История развития и основные направления эколого-антропологических исследований в науке США // Гуманитарная экология и мир человека: материалы Всероссийской научной конференции с международным участием, 27-29 октября 2011 г. – Киров: изд. «Коннектика», 2011, с. 39-51.